

## **XOMILADORLIK DAVRIDAGI QANDLI DIABET**

*Yalg'ashev Farrux Quvondiq og'li  
Nurkosimova Nilufar Qaxramonovna  
Qo'lidosheva Mohina Xolmurod qizi  
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti  
Davolash ishi fakulteti talabalari  
Ilmiy raxbar: Negmatova Gulzoda Shuhratovna  
SamDTU Endokrinologiya kafedra mudiri PhD*

**Annotatsiya:** Qandli diabet - bu insulinni mutloq yoki nisbiy yetishmasligi (sekresiyasi yoki uning ta'siri nuqsonlari) oqibatida kelib chiqadigan surunkali giperglykemiya kabi umumiy simptomatika bilan birlashtirilgan metabolik buzilishlar natijasi.Qandli diabet boshqa kasalliklar bilan birga kelganda turlicha og'irlikda kechishi mumkin. Homladorlik davrida qandli diabet kechishida ham bazi o'ziga xisliklar mavjud.

**Kalit so'zlar:** Toksikoz, arterila gipertensiya, yaqqol, tranzitor, latent, ketoz, atsidoz, gestatsion qandli diabet, platsentar suyuqlik, residivlangan kolpit, insulinoterapiya, tolerantlak testi, gipertrixoz, kardiomiopatiya belgilari, hepatomegaliya, splenomegaliya, oyoqlarning ingichka bo'lishi, kon'yugatsion sariqlik, toksik eritema.

**Xomladorlik davridagi qandli diabet.** Oxirgi ma'lumotlarga qaraganda homiladorlikda qandli diabet umumiy ko'rsatkichlarning 4 foizini tashkil qilmoqda. Homiladorlik paytida uglevod almashinuvining buzilishi hamda insulinning mutloq yoki nisbiy yetishmovchiligi homiladorlar qandli diabeti deb yuritiladi. Qandli diabet aynan homiladorlik vaqtida kelib chiqsa gestatsion diabet deyiladi. Homiladorlikdan oldin paydo bo'lgan qandli diabet gestatsiya oldi qandli diabeti deyiladi.

Homiladorlar qandli diabetining 80 foizini gestatsion qandli diabet tashkil qiladi, demak, aynan homiladorlik paytida qandli diabet kelib chiqishi diabetning homiladorlik bilan bog'liq degan xulosaga kelamiz.

Homilador ayolning organizmida bo'ladigan kuchli o'zgarishlar, ya'ni sirkulyatsiya bo'ladigan qon hajmining oshishi, ba'zi bir ichki organlarning fiziologik holatining o'zgarishi, barcha moddalar almashinuvlaridan gormonal statusdagi o'zgarishlar tug'ruq va bolaning emizilishiga organizmning qayta moslashishi oqibatidir. Ammo shunday holatlar bo'ladiki, ayol organizmi bunday kuchli o'zgarishlarga dosh bera olmaydi va natijada bir necha patologik o'zgarishlar kelib chiqadi. Bular:

homiladorlik toksikozi;  
arterial gipertenziya;  
qandli diabet;

Homiladorlikda qandli diabet kelib chiqishi mexanizmi juda murakkab protsess bo'lib, uning asosida organ va to'qimalarning glyukoza va insulinga sezuvchanligining

buzilishi yotadi. Homiladorlikda qandli diabet rivojlanganda ayol endokrinolog, akusher va neonatolog kabi mutaxassislar tomonidan nazorati ostiga olinishi shart.

Klinikada Homiladorlar qandli diabetining quyidagi shakllari tafovut qilinadi:

1. yaqqol;
2. tranzitor;
3. latent;

Yaqqol qandli diabet diagnostikasi giperglikemiya va glyukozuriyaga asoslanadi. Yengil shaklida nahorgi glikemiya 6,66 mmol/l bo‘ladi, ketoz kuzatilmaydi. Bunday shakldagi qandli diabet davosi uchun diyetoterapiya yetarli bo‘la oladi. O‘rta og‘irlilikdagi qandli diabetda qondagi qand 12.21 mmol/lni tashkil etadi, ketoz kuzatilmaydi. Davo uchun intensiv insulinoterapiya qo‘llaniladi. Og‘ir shakldagi qandli diabetda esa qondagi qand 12.21 mmol/ldan yuqori bo‘ladi va ketoz rivojlanishiga moyillik bo‘ladi.

Homiladorlar qandli diabetining 50 foizida tranzitor (o‘tib ketuvchi) diabet qayd qilinadi. Bu holat homiladorlik bilan bog‘liq bo‘lib, tug‘ruqdan keyin o‘tib ketadi. Keyingir homiladorlikda diabet yana takrorlanishi mumkin.

Latent diabetni aniqlash uchun klinik simptomlar yetarlicha yuzaga chiqmaganligi sababli glyukozaga tolerantlak testini o‘tkazish kerak bo‘ladi.

Homiladorlar qandli diabeti rivojlanishi mumkin bo‘lgan faktorlar:

1. qarindoshlarida qandli diabet bilan kasallanganlar bo‘lishi;
2. anamnezida gestatsion qandli diabet qayd qilinishi;
3. nahorda qand miqdorining 5,55 mmol/ldan ko‘p bo‘lishi;
4. semizlik kuzatilishi;
5. homilaning 4000 grammdan katta vazn bilan tug‘ilishi;
6. platsentar suyuqlik (homila oldi suvi) ko‘p bo‘lishi;
7. 35 yoshdan katta ayollar;
8. arterial gipertenziya kuzatilishi;
9. residivlangan kolpit va ginekologik kasalliklar kuzatilishi;

**Homiladorlar qandli diabetining klinik manzarasida quyidagi simptomatika ko‘p kuzatiladi:**

Og‘iz qurishi, polidipsiya, poliuriya, pollakiuriya, yaxshi ishtaha fonida ozib ketish, umumi darmonsizlik, terining qichishishi, pioreya, furunkulyoz va boshqalar.

#### **Kechishi:**

I bosqich – homiladorlikning 10 – nchi haftasidan qandli diabet klinikasi boshlanadi, 2 – 3 oy davom etadi, glyukozaga tolerantlak testi buzilishi yuzaga chiqadi, diabetning kompensatsiyasiga insulinoterapiya yordamida erishiladi.

II bosqich – homiladorlikning 24 – 28 – nchi haftasidan qandli diabet asosiy belgilardan tashqari atsidoz, prekoma holatlari rivojlanishi bilan boshlanadi. Bunda insulinning dozasi ko‘tarilib, tug‘ruq davrigacha ayol doimiy nazorat ostida bo‘lishi lozim.

III bosqichda qandli diabetga xos o‘zgarishlar tug‘ruq hamda tug‘ruqdan keyingi davrda kechadi. Tug‘ruq paytida metabolik atsidoz kuzatiladi.

Tug‘ruqdan so‘ng glikemiya pasayadi, laktatsiya vaqtida insulinga ehtiyoj kamayadi.

Homiladorlar qandli diabetida atsidozning kelib chiqishi sababi buyraklar funksiyasi buzilishi bilan bog‘liq. Buyraklarda qand reabsorbsiyasining pasayishi homiladorlikning 4 – 5 – oylariga to‘g‘ri keladi.

Homiladorlar qandli diabetining eng ko‘p uchraydigan asoratlariiga quyidagilar misol bo‘la oladi:

• sababsiz homilaning tushishi;

• kechki gestatsion toksoikoz;

• homila oldi suvining (platsentar suyuqlik) me’yorida ko‘p bo‘lishi;

• siydk chiqarish yo‘llarining yallig‘lanish kasalliklari

Sababsiz homilaning tushishi Homiladorlar qandli diabetining 15 – 31 foizida uchraydi. Bu ko‘rsatkich, asosan, homiladorlikning 20 – 27 – haftalariga to‘g‘ri keladi. Bunga sabab bo‘luvchi omillar:

- kechki gestatsion toksoikozlar;

- diabetik mikroangiopatiyalar;

- diabetik nefropatiya;

- platsentar qon aylanishining buzilishi;

- ayolda arterial gipertensiya kuzatilishi;

- tanada shishlar bo‘lishi;

Bunday asoratlarning oldini olish uchun gestatsion qandli diabetning homiladorlikning boshlanishidan maksimal kompensatsiyasiga erishish kerak bo‘ladi. Shunday natijagina asoratlarni 14 foizga kamaytirishga imkon berishi mumkin.

Ona qonidagi qand miqdorining baland bo‘lishi homila rivojlanishiga salbiy oqibatlarga olib keeladi. Homiladorlar qandli diabetining homilada bo‘ladigan asoratlari bir so‘z bilan diabetik fetopatiyalar deyiladi. Diabetik fetopatiyalarga quyidagilar kiradi:

homilaning 4000 grammdan katta vazn bilan tug‘ilishi. Yog' to‘qimasining ortiqcha rivojlanishi tufayli bola kushingoid yuz tuzilishiga ega bo‘ladi.

me’da osti bezi orolchalarining gipertrofiyasi

yurak hajmining kattalashishi

miya hajmining kichrayishi

ko‘pgina hollarda pankreatik orolchalar strukturasining rivojlanmay qolishi.

Homiladorlar qandli diabeti ta’siri ostida kelib chiqqan ushbu o‘zgarishlar natijasi o‘laroq ularning funksiyasining pasayishi va buzilishi. Buning oqibatida yangi tug‘ilgan chaqaloqda nafas olish buzilishi, nefrologik va kardiologik o‘zgarishlar kuzatiladi

Gipoglikemiya chaqaloqning o‘limiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shunga ko‘ra tibbiyot xodimlarining bunday vaziyatlarda eng asosiy vazifasi – bu tug‘ilgan bolaning hayotini asrab qolish uchun barcha chora – tadbirlarni ko‘rishdan iboratdir. Bular – chaqaloq tug‘ilgan zahotiyoy undagi nafas yetishmovchiligi, yurak yetishmovchiligi, markaziy nerv sistemasi zararlanishi, atsidoz va gipoglikemiyaga qarshi davo tadbirlarini o‘tkazishdir.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqni kuzatganimizda, unda diabetik fetopatiyaning yaqqol belgilari ko‘rishimiz mumkin:

- yuqori vazn bilan tug‘ilish;
- tanada shishlar bo‘lishi;
- oysimon yuz;
- kalta bo‘yin;
- ko‘zlarining cho‘kkanligi;
- gipertrixoz;
- kardiomiopatiya belgilari;
- gepatomegaliya;
- splenomegaliya;
- oyoqlarning ingichka bo‘lishi;
- kon’yugatsion sariqlik;
- toksik eritema;
- tug‘ruqdan ko‘p o‘tmasdan tana vaznining keskin kamayishi;
- va boshqalar;

Homiladorlar qandli diabetini davolash. Qandli diabeti bo‘lgan homilador ayol gestatsiya davrida kamida uch marta gospitalizatsiya qilinishi shart.

1 – gospitalizatsiya homiladorlikning 1 – 3 – nchi haftalaridayoq

2 – gospitalizatsiya homiladorlikning 20 – haftasidan so‘ng

3 – gospitalizatsiya homiladorlikning 32 – haftasidan so‘ng ayolni tug‘ruq jarayoniga tayyorlash maqsadida.

Bunda akusher – ginekolog bilan birgalikda endokrinolog ham jalb etilish muhimdir. Gospitalizatsiyalarning sababi bo‘lib homiladorlikda insulinga bo‘lgan ehtiyoj juda o‘zgaruvchan bo‘lishi va uning dozasini tinimsiz korreksiya qilib turish kerakligi xizmat qiladi. Homilador ayolda parhez ham doim o‘zgartirilib turiladi.

Ovqatlanish kam – kamdan va tez – tez amalga oshirilishi lozim. Yengil hazm bo‘ladigan uglevod tutuvchi ovqat mahsulotlari (shokolad, konfetlar, murabbo, muzqaymoq, piroqlar va boshqa konditer pishiriqlari, uzum sharbati, gazlangan shirin yaxna ichimliklar va boshqalar) cheklanadi. Ovqatning energetik qiymati 2000 kal/sut miqdorda bo‘lib, uning 50 foizini oqsillar tashkil qilishi kerak bo‘ladi. Vitaminlarga boy, lekin uglevod miqdori kam bo‘lgan meva va sabzavotlar tavsija etiladi.

Ayollarda dozalangan yengil jismoniy tarbiya mashqlarini o‘tkazish ham glyukoza utilizatsiyasini kuchaytiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Intensiv insulinoterapiya bilan birgalikda asoratlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik davo choralar olib boriladi.

Tug‘ruq 36 – 37 – haftada amalga oshirilishi lozim. Bu tadbir fetoplatsentor yetishmovchilik natijasida homilaning ona qornida o‘lishining oldini olishga qaratilgan. Rejali tarzda Kesar kesish operatsiyasi amalga oshirilsa, ona va chaqaloqdagi Homiladorlar qandli diabeti asoratlarining oldi olingen bo‘ladi.

Tug‘ruqdan so‘ng tuqqan ona va chaqaloqni reanimatsiya bo‘limiga o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Keyinchalik ona va bola endokrinolog nazorati ostiga olinadi.

Qandli diabeti bo‘lgan quyidagi tekshiruvlardan o‘tgan ayol homilador bo‘lishi mumkin:

1. umumiy qon tahlili, umumiy siydiq tahlili, qonda Vasserman reaksiysi, OITS, gepatit V va S aniqlash;
2. ginekologik tekshiruvdan o'tish;
3. ichki organlar UTTsini o'tkazish;
4. jinsiy a'zolardan surtma olish;
5. qonni infeksiyalarga tekshirish va qanday infeksiya bo'lishidan qat'iy nazar davolanish;
6. oftalmologik tekshiruvdan o'tish;
7. Nechiporenko sinamasi;
8. bioximik tekshiruvlar (qondagi mochevina, kreatinin, siydiqdagi oqsil);
9. urologik va nefrologik tekshiruvdan o'tish;
10. nevropatolog ko'riganidan o'tish;
11. qon tomir sistemasiini tekshirish, EKG qilish, arterial bosimni o'lchash;
12. qondagi qalqonsimon bez gormonlarini aniqlash;
13. endokrinolog ko'riganidan o'tish;

**Diabetik kriteriyarlarni stabillash:**

- Hb1Ac 5,9 %dan kam bo'lishi;
- Nahorgi glikemiya 3,33 – 5,55 mmol/l bo'lishi;
- ovqatlanishdan 1 soat o'tgach qondagi qand miqdori 7,8 mmol/l dan oshmasligi;
- ovqatlanishdan 2 soat o'tgach qondagi qand miqdori 6,7 mmol/l dan oshmasligi;
- Uyqudan oldin qondagi qand miqdori 5,0 mmol/l dan oshmasligi;
- ovqatlanishdan oldin qondagi qand miqdori 5,8 mmol/l dan oshmasligi;
- Siydikda keton tanachalari bo'lmasligi;
- Arterial bosim 135/80 mm s.u.dan oshmasligi;

Sanab o'tilgan ko'rsatkichlar normal bo'lgandagina ayol homiladorlikni rejalashtirishi mumkin.

**FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI****Asosiy adabiyyotlar:**

1. Shagazatova B.X. va boshkalar. Endokrinologiya, Darslik Toshkent 2020.
2. Ismoilov S.I. Endokrinologiya, Darslik. Toshkent. 2017 yil
3. Dedov I. I., Melnichenko G. A., Fadeev V. V. Endokrinologiya, Darslik. Moskva. 2015 yil

**Qo'shimcha adabiyyotlar:**

1. Ismailov S.I. Endokrinologiya, Maruzalar issiqlik. Toshkent. 2005 yil
2. Najmutdinova D.K. Endocology umumiy amaliet harakati faoliyatida, O'quvv yordamLANma. Toshkent. 2005 yil
3. Starkova N.T. tomonidan tahrirlangan. Endokrinologiya bo'yicha qo'llanma. Moskva. 2002 yil
4. Balabolkin M.I. Endokrinologiya, darslik. Moskva. 1998 yil
5. Genri M. Kronenberg va boshqalar Uilyamsiga ko'ra Endokrinologiya, Kitob. Moskva. 2011 yil
6. Gardner D., Shobek D. Asosiy va klinik endokrinologiya. 2013, 2015.

7. Dedov I.I., Shestakova M.V. Qandli diabet. O'tkir va surunkali asoratlar. Moskva. 2011 yil

8. Ametov A.S., Doskina E.V. Akromegali va gigantizm. Moskva. 2010 yil

9. Balabolkin M.I. Endokrinologiya. Darslik. Moskva. 1998 yil

**Internet saytlar:**

1. Med.-site.narod.ru

2. www.tma.uz

3. www.zyonet.uz

4. www.medlook.ru